

YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIDA OILA INSTITUTINING TRANSFORMATSIYASI VA ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Mo‘minov Azamat Solijonovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22913965>

Annotatsiya. Maqolada oila institutining zamonaviy transformatsiyasi yoshlar ijtimoiylashuvi kontekstida ijtimoiy-falsafiy tahlil doirasida tadqiq etilgan. Muallif oiladagi strukturaviy va funksional o‘zgarishlarni inqiroz emas, balki ijtimoiy modernizatsiyaga adaptiv javob sifatida talqin qilish metodologik jihatdan asoslangan degan pozitsiyani ilgari suradi. Ishda kengaytirilgan oiladan nuklear oilaga o‘tish, individualizatsiya, mehnat migratsiyasi natijasida shakllangan transmilliy oila hodisasi hamda raqamli vositachilikning oilaviy kommunikatsiyaga ta’siri tizimli tahlil qilingan. Tarbiyaviy funksiyaning qisman eksternallashuvi natijasida avlodlararo aksiologik transmissiya zanjirida uzilish yuzaga kelayotgani asoslangan va oilaning ijtimoiylashtiruvchi salohiyatini mustahkamlashning uch yo‘nalishli modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: oila instituti, ijtimoiylashuv, yoshlar, deinstitutionalizatsiya, individualizatsiya, nuklear oila, avlodlararo transmissiya, transmilliy oila, ontologik xavfsizlik, ijtimoiy kapital, mahalla, oilaviy kommunikatsiya.

Abstract. The article examines the contemporary transformation of the family institution in the context of youth socialization from a socio-philosophical perspective. Structural and functional changes in the family are interpreted not as a crisis, but as an adaptive response to social modernization. The study analyzes the transition from the extended to the nuclear family, individualization, the formation of transnational families due to labor migration, and the impact of digital technologies on family communication. It argues that the partial externalization of the family’s educational function disrupts intergenerational axiological

transmission. A three-directional model for strengthening the socializing potential of the family is proposed.

Keywords: family institution, socialization, youth, individualization, nuclear family, intergenerational transmission, transnational family, ontological security, social capital, mahalla, family communication.

Аннотация: В статье современная трансформация института семьи рассматривается в контексте социализации молодёжи в рамках социально-философского анализа. Структурные и функциональные изменения в семье интерпретируются не как кризис, а как адаптивный ответ на социальную модернизацию. Системно анализируются переход от расширенной к нуклеарной семье, индивидуализация, формирование транснациональных семей вследствие трудовой миграции и влияние цифровых технологий на семейную коммуникацию. Обосновывается, что частичная экстернализация воспитательной функции приводит к разрыву межпоколенческой аксиологической трансмиссии. Предлагается трёхнаправленная модель укрепления социализирующего потенциала семьи.

Ключевые слова: институт семьи, социализация, молодёжь, индивидуализация, нуклеарная семья, межпоколенческая трансмиссия, транснациональная семья, онтологическая безопасность, социальный капитал, махалля, семейная коммуникация.

KIRISH

Oila instituti ijtimoiy falsafa tarixida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi asosiy vositachi bo‘g‘in sifatida barqaror e’tirof etib kelingan. Aynan oila doirasida individ birinchi marta ijtimoiy tartibning obyektivlashgan strukturalari bilan uchrashadi va ularni o‘z ichki dunyosining tarkibiy qismiga aylantiradi. P.Berger va T.Lukman asoslab bergan ijtimoiy konstruksionizm nazariyasiga muvofiq, birlamchi ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan voqelik obrazi shaxs uchun eng chuqur va

eng barqaror qatlam bo‘lib qoladi; keyingi barcha ijtimoiy tajribalar aynan shu birlamchi matritsa asosida talqin qilinadi [2]. T.Parsons va R.Beylz esa strukturaviy-funksional yondashuv doirasida oilaning ikkita reduksiya qilib bo‘lmaydigan funksiyasini - bolalarning birlamchi ijtimoiylashuvi va voyaga yetgan shaxslar shaxsiyatining stabilizatsiyasini ajratib ko‘rsatishgan [1]. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab oila institutining strukturasi va funksional yuklamasi jadal o‘zgarishga uchradi. U.Gud tomonidan o‘tkazilgan yirik qiyosiy tadqiqot sanoatlashuv jarayoni bilan kengaytirilgan qarindoshlik tizimidan nuklear oila modeliga o‘tish o‘rtasidagi global bog‘liqlikni ko‘rsatib berdi [8]. Ushbu o‘tish shunchaki oila a‘zolari sonining kamayishi emas edi - u ijtimoiylashuv resurslarining tub qayta taqsimlanishini anglatardi: buvi-bobolar, amaki-xolalar va kengroq qarindoshlik doirasi tomonidan ta‘minlanadigan ko‘p kanalli tarbiyaviy ta‘sir ikki kishilik ota-onalik yadrosiga siqib qo‘yildi. U.Bek va E.Bek-Gernshaym ilgari surgan individualizatsiya konsepsiyasi mazkur transformatsiyaning chuqurroq ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib beradi [4]. Mualliflarning fikricha, zamonaviy jamiyatda hayot yo‘li oldindan berilgan an‘naviy stsenariy bo‘lishdan to‘xtab, individ tomonidan mustaqil loyihalanishi lozim bo‘lgan vazifaga aylanadi. Bu - “institutsionallashtirilgan individualizm” holati bo‘lib, unda shaxs o‘z taqdiri uchun avvalgidan ko‘ra ko‘proq erkinlikka, ayni paytda esa ko‘proq mas‘uliyat va noaniqlikka ega bo‘ladi. Oila kontekstida bu nikoh va ota-onalikning majburiy normativ status bo‘lishdan to‘xtab, muzokara qilinadigan va qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy tanlovga aylanishini anglatadi.

A.Charlin ushbu jarayonni tavsiflash uchun “nikohning deinstitutionallashtirishuvi” atamasini taklif etadi [5]. Uning ta’kidlashicha, oilaviy xulq-atvorni tartibga soluvchi umumiy me‘yorlar zaiflashgani sari har bir juftlik o‘z munosabatlari qoidalarini mustaqil ishlab chiqishga majbur bo‘ladi. Bu esa oilaviy hayotning kognitiv va emotsional yuklamasini oshiradi. Yoshlar ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan mazkur holat muhim oqibatga ega: bola endi tayyor va bir ma’noli

xulq-atvor modelini emas, balki muzokaralar, kelishuvlar va ba’zan ziddiyatlar orqali qurilgan o’zgaruvchan modelni o’zlashtiradi. E.Giddens taklif etgan “ontologik xavfsizlik” kategoriyasi oilaning zamonaviy sharoitdagi o’rnini tushunishda alohida evristik qiymatga ega [7]. Giddensning talqinicha, shaxs psixik barqarorligi kundalik hayot uzluksizligiga va atrofdagi ijtimoiy dunyoning bashoratliligiga bo’lgan asosiy ishonchga tayanadi. Oila aynan shu asosiy ishonchning shakllanish maydonidir. Agar oilaviy muhitning o’zi beqaror bo’lsa, shaxs keyinchalik ijtimoiy voqelikni xavf manbai sifatida idrok etishga moyil bo’ladi. Bu esa yoshlarning ijtimoiy adaptatsiyasida jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo’lishi mumkin. Zamonaviy oila transformatsiyasining yana bir muhim o’lchovi - ijtimoiy kapitalning o’zgarishidir. R.Patnem o’z tadqiqotida ijtimoiy aloqalar zichligining pasayishi jamoaviy hayotning barcha sohalarida salbiy oqibatlariga olib kelishini ko’rsatib berdi [10]. Oila darajasida bu - avlodlararo muloqot vaqtining qisqarishi, qo’shni va qarindoshlik aloqalarining zaiflashuvi hamda mahalliy jamoaning tarbiyaviy nazorat funksiyasining susayishida namoyon bo’ladi. O’zbekiston sharoitida bu jarayon o’ziga xos tarzda kechadi, chunki bu yerda mahalla instituti hanuzgacha muhim ijtimoiylashtiruvchi vazifani bajarib kelmoqda va u oilaning zaiflashgan funksiyalarini qisman qoplash salohiyatiga ega. Milliy kontekstda alohida e’tiborni talab qiladigan hodisa - mehnat migratsiyasi natijasida shakllangan “transmilliy oila” fenomenidir. Ota-onalardan biri yoki har ikkisi uzoq muddat mamlakat tashqarisida bo’lgan sharoitda oila jismoniy jihatdan parchalanadi, biroq iqtisodiy va emotsional birlik sifatida saqlanib qoladi. Bunday oilalarda ijtimoiylashuv jarayoni o’ziga xos ziddiyatli xususiyat kasb etadi: moddiy ta’minot darajasi ko’pincha yaxshilanadi, ammo bevosita tarbiyaviy muloqot defitsiti yuzaga keladi. Nazariy jihatdan bu - oilaning iqtisodiy funksiyasi bilan tarbiyaviy funksiyasi o’rtasidagi strukturaviy ziddiyat sifatida talqin qilinishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarning oilaviy kommunikatsiyaga ta’siri muammoning yana bir qatlamini tashkil etadi. Bir tomondan, raqamli vositalar masofadagi oila

a’zolari o’rtasidagi aloqani saqlash imkonini beradi. Boshqa tomondan, bir uy ichida yashovchi oila a’zolari o’rtasida ham “birgalikdagi yolg’izlik” holati kuzatiladi: jismoniy yaqinlik saqlangan holda diqqat markazi individual ekranlarga taqsimlanadi. Natijada oilaviy muloqotning eng qimmatli shakli - tuzilmalashmagan, erkin va uzoq davom etuvchi suhbat qisqaradi. Aynan shunday suhbatlar esa qadriyatlarni bevosita uzatishning asosiy kanali hisoblanadi. Muammoning ilmiy o’rganilganlik darajasi tahlili shuni ko’rsatadiki, oila transformatsiyasi masalasi mahalliy adabiyotda asosan demografik va huquqiy jihatlar kesimida tadqiq etilgan bo’lib, uning ijtimoiy-falsafiy o’lchovi — oilaning ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi mazmunidagi sifat o’zgarishlari yetarlicha kontseptuallashtirilmagan. Ayni paytda oila, ta’lim muassasasi va mahalla o’rtasidagi tarbiyaviy hamkorlikning zamonaviy modeli ham nazariy jihatdan to’liq asoslanmagan. S.Ergashbaev haqli ravishda qayd etganidek, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarini qamrab olishi lozim, bu esa oila bilan ta’lim institutlari o’rtasidagi uzviylikni taqozo etadi [6; 9]. Transformatsiyaning strukturaviy o’lchovi. Oila institutidagi o’zgarishlarni tahlil qilishda birinchi navbatda strukturaviy siljishlarni qayd etish lozim. Ular quyidagi tendensiyalarda namoyon bo’ladi: oila a’zolari sonining qisqarishi va nuklear modelning ustunlik qilishi; nikohga kirish va farzand ko’rish yoshining kechikishi; ayollarning kasbiy bandligi ortishi natijasida uy xo’jaligidagi rollarning qayta taqsimlanishi; migratsiya tufayli oilaning makoniy tarqoqligi. Muhim metodologik jihat shundaki, ushbu tendensiyalarni avtomatik ravishda “inqiroz” sifatida baholash asossizdir. Ular - ijtimoiy modernizatsiyaga adaptiv javob bo’lib, o’z-o’zidan qadriyatli baho talab qilmaydi. Tahlil predmeti bu o’zgarishlarning oqibatlari bo’lishi kerak. Funksional o’lchov va tarbiyaviy funksiyaning eksternallashuvi. Strukturaviy siljishlarning eng muhim oqibati - oilaning tarbiyaviy funksiyasi qisman tashqi institutlarga ko’chishidir. Bola hayotining sezilarli qismi maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab, to’garak va raqamli muhitda o’tadi. Bu

jarayonni funksional eksternallashtirish deb atash mumkin. Uning ijobiy tomoni - ijtimoiylashtirish kanallarining kengayishi va professional pedagogik ta’limning kuchayishi. Salbiy tomoni esa oilaning normativ yadro sifatidagi mavqecining zaiflashuvi hamda turli institutlardan keluvchi tarbiyaviy signallarning nomuvofiqligidir. Shaxs bir-biriga zid bo‘lgan normativ talablar oralig‘ida qoladi va bu aksiologik chalkashlikni yuzaga keltiradi. Avlodlararo transmissiya zanjiridagi uzilish. Klassik jamiyatda qadriyatlar uzatilishi vertikal va bir yo‘nalishli edi: keksa avlod tajriba manbai, yosh avlod esa uni qabul qiluvchi hisoblangan. Zamonaviy sharoitda ushbu ierarxiya buziladi. Texnologik kompetentlik bo‘yicha ustunlik yosh avlod tomoniga o‘tishi ota-ona avtoritetining an’anaviy asosini zaiflashtiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy o‘zgarishlar sur’atining tezlashuvi ota-onalar tajribasining amaliy qo‘llanuvchanlik darajasini pasaytiradi. Natijada avtoritet an’anaviy statusga emas, balki muloqot sifatiga va shaxsiy namunaga tayanadigan bo‘lib qoladi. Bu - oila uchun jiddiy sinov, ammo ayni paytda tarbiyaning yanada chuqurroq, dialogik shakliga o‘tish imkoniyatidir.

Tadqiqotning maqsadi - yoshlar ijtimoiylashtirish kontekstida oila institutining transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida kontseptuallashtirish va uning ijtimoiylashtiruvchi salohiyatini mustahkamlash yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni ko‘zda tutadi: oila institutining strukturaviy va funksional o‘zgarishlarini tizimlashtirish; ushbu o‘zgarishlarning ijtimoiylashtirish jarayoniga ta’sirini aniqlash; milliy sharoitdagi o‘ziga xos muammolarni tavsiflash; oila salohiyatini mustahkamlash modelini taklif etish. Metodologik asosni tizimli-strukturaviy, funksional, qiyosiy-tarixiy va aksiologik yondashuvlar majmui tashkil etadi. Oila salohiyatini mustahkamlash modeli. Tahlil asosida uch yo‘nalishli model taklif etiladi. Funksional yo‘nalish oilaning eksternallashtirib bo‘lmaydigan yadrovii funksiyalarini - emotsional qo‘llab-quvvatlash, ontologik xavfsizlikni ta’minlash va asosiy aksiologik mo‘ljallarni uzatishni aniq belgilash va mustahkamlashni ko‘zda tutadi. Kommunikativ yo‘nalish

ota-onalarda dialogik muloqot kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan: bu yerda gap ota-onalik savodxonligini oshirish dasturlarini tizimli yo‘lga qo‘yish haqida bormoqda. Institutsional-hamkorlik yo‘nalishi esa oila, ta’lim muassasasi va mahalla o‘rtasidagi tarbiyaviy signallarning muvofiqlashtirilishini nazarda tutadi[3;6].

XULOSA

Olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, oila institutining zamonaviy o‘zgarishlarini bir ma’noli “inqiroz” sifatida baholash metodologik jihatdan asossizdir. Kuzatilayotgan strukturaviy va funksional siljishlar sanoatlashuv, urbanizatsiya va individualizatsiya jarayonlariga oilaning adaptiv javobi bo‘lib, ilmiy tahlil predmeti o‘zgarishlarning o‘zi emas, balki ularning ijtimoiylashuv sifatiga ta’siri bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, transformatsiyaning eng muhim oqibati tarbiyaviy funksiyaning qisman eksternallashuvi va oilaning normativ yadro maqomining zaiflashuvidir. Bu holat turli ijtimoiylashuv agentlaridan keluvchi normativ signallarning nomuvofiqligini keltirib chiqaradi hamda avlodlararo aksiologik transmissiya zanjirida uzilishni kuchaytiradi. Uchinchidan, O‘zbekiston sharoitida an’anaviy oilaviy qadriyatlar va mahalla instituti muhim ijtimoiy resurs bo‘lib qolmoqda. Biroq bu resursni saqlash uning shakllarini o‘zgarishsiz takrorlash orqali emas, balki mazmunini zamonaviy sharoitga adekvat tarzda qayta talqin qilish orqali amalga oshirilishi kerak. To‘rtinchidan, taklif etilgan uch yo‘nalishli model oilaning ijtimoiylashtiruvchi salohiyatini mustahkamlashning tizimli asosini tashkil etadi. Uning muhim tamoyili oilani ta’lim va jamoat institutlariga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ular o‘rtasida muvofiqlashtirilgan tarbiyaviy makon yaratishdir. Kelgusi tadqiqotlarda transmilliy oilalarda ijtimoiylashuv jarayonining o‘ziga xosligini empirik o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parsons, T. Family, Socialization and Interaction Process / T. Parsons, R. F. Bales. – Glencoe: The Free Press, 1955. – 422 p.
2. Berger, P. L. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge / P. L. Berger, T. Luckmann. – New York: Anchor Books, 1966. – 219 p.
3. Mirzaolimjon o‘g‘li, M. M. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati va universitetlarning yangi modellari / M. M. Mirzaolimjon o‘g‘li, E. Shohbozbek // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – T. 16, № 01. – B. 325–328.
4. Beck, U. Individualization: Institutionalized Individualism and its Social and Political Consequences / U. Beck, E. Beck-Gernsheim. – London: SAGE Publications, 2002. – 221 p.
5. Cherlin, A. J. The Deinstitutionalization of American Marriage / A. J. Cherlin // Journal of Marriage and Family. – 2004. – Vol. 66, № 4. – P. 848–861.
6. Ergashbaev, S. O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish / S. Ergashbaev // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1, № 1. – С. 314–316.
7. Giddens, A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age / A. Giddens. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – 256 p.
8. Goode, W. J. World Revolution and Family Patterns / W. J. Goode. – New York: The Free Press, 1963. – 432 p.
9. Ergashbayev, S. Uzluksiz ta’lim tashkil etish orqali yoshlarning ma’naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish / S. Ergashbayev // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 10–13.
10. Putnam, R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community / R. D. Putnam. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.